

“ALLAH” KOMPONENTLİ DEYİMLAR HAQİDA

Muazzama Foziliya

Turkshunoslik Fakulteti Talabasi TDSHU, Uzbekistan

ABSTRACT: Ushbu maqolada jahon tilshunosligidagi eng qiziqarli ilmiy sohalardan biri frazeologizmlarning o'rganilishi haqida so'z boradi. Bu boradagi o'zbek tilshunosligida va turk tilshunosligida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga izoh berilgan. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning ma'nosi, lug'aviy, uslubiy va semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish masalasiga e'tibor qaratilib, ayrim nuqsonlar haqida fikr bildirilgan. Frazeologizmlarning semantik jihatdan tasnifi, murakkab mazmunli iboralarning izohlanishi masalasiga alohida urg'u berilgan. Turk tilshunoslarning frazeologizmlar borasidagi ilmiy qarashlarga, “deyim”, “tabir” terminlariga izohlangan. Shuningdek dunyoning barcha tillaridagi frazeologizmlarning umumiyl xususiyatlari yagonaligi, adiblar tilida esa milliy o'zgachalikni berish uchun frazeologizmlardan foydalilanishi borasidagi fikrlar ilgari surilgan. Frazeologizmlarning leksik-semantik tahlili va iboralarda milliy til, unda so'zlashuchi aholining dunyoqarashi, dini va urf-odatlarida o'xshash jihatlarning aks etish aytilgan. Shu asnoda turk tilidagi usmonlilar davrida ishlatilgan frazeologizmlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan. Buning uchun yozuvchi Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” (“Çalikuşu”), “Bir xotin dushmani” (“Bir Kadin Düşmanı”) romanlarini manba sifatida tanlangan. Rashod Nuri Guntekin o'zining romanlarida qahramonlar nutqidagi milliylikni ta'minlash maqsadida juda ko'p deyimlardan foydalanganligi va ularning o'rnida boshqasini qo'llab bo'imasligi qayd etilgan. Adibning yozuvchilik mahoratiga tahsinlar aytilgan holda uning romanlaridagi frazeologizmlar ma'lum bir komponentlar asosida leksik-semantik tahlil qilingan. Shunga ko'ra adibning ikki asarida qo'llagan deyimlar ma'lum bir tizim asosida tasniflangan. O'z navbatida yozuvchi Rashod Nuri Guntekin romanlarida turli komponentli deyimlar uchragani aytib o'tilgan. Turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi”, “Bir xotin dushmani” romanlarida “Allah” komponentli deyimlar ko'p uchragani va yozuvchi ulardan turli xil mazmunlarni ifodalashda foydalangani misollar asosida sharhlangan.

KEY WORDS: Turk tilshunoslari, deyim, tabir, turk tili, mantig'idan og'gan, qoliplashgan birlik, frazeologizmlarning umumiyl xususiyati, ibora qolipi, leksik-semantik tahlil, Rashod Nuri Guntekin, “Choliqushi”, “Bir xotin dushmani”, roman.

“ABOUT THE DEYIMS “ALLAH” COMPONENT

Muazzama Foziliya

Student Faculty of Turkic Studies Tashkent State University of Oriental Studies,, Uzbekistan

ABSTRACT: This article deals with the study of phraseology, one of the most interesting scientific disciplines in world linguistics. Research in Uzbek and Turkish linguistics has been commented on. In Uzbek linguistics, attention is paid to the issue of grouping according to the meaning, lexical, methodological and semantic features of phraseology, and some shortcomings are discussed. Particular emphasis is placed on the semantic classification of phraseologies, the interpretation of complex phrases. It is explained by the scientific views of Turkish linguists on phraseology, the terms "deym", "tabir". It is also argued that the common features of phraseology in all languages of the world are the same, and in the language of writers the use of phraseology to give national identity. Lexical-semantic analysis of phraseologies and phrases refers to the national language, which reflects similarities in the worldview, religion and customs of the speaking population. At the same time, the phraseology used in the Ottoman period in the Turkish language was analyzed lexically and semantically. For this purpose, the author Rashod Nuri Guntekin's novels "Cholikushi" ("Çalikuşu"), "The Enemy of a Woman" ("Bir Kadin Düşmanı") were selected as a source. In his novels, Rashod Nuri Guntekin notes that the protagonists have used too many expressions to ensure nationalism in their speech, and that no other can be used in their place. Praising the author's writing skills, the phraseology in his novels is analyzed lexically and semantically based on certain components. Accordingly, the expressions used by the author in the two works are classified according to a certain system. Author Rashod Nuri Guntekin's novels, on the other hand, contain a variety of components. Turkish writer Rashod Nuri Guntekin's novels "Cholikushi" and "The Enemy of a Woman" often use the phrase "Allah" and are used by the author to express various meanings.

KEY WORDS: Turkish linguists, Deyim, tabir, Turkish language, logic, stereotyped unity, general features of phraseology, phraseology, lexical-semantic analysis, Rashod Nuri Guntekin, "Cholikushi", "An Enemy of a Woman", novel.

INTRODUCTION

Turk tilshunoslarining frazeologizmlar borasidagi ilmiy qarashlari o'ziga xosdir. Professor Vecihi Hatiboğlu o'zining deym(ibora)lar to'g'risidagi nazaiy fikrlarini shunday bayon qilgan: "Deyim"(ibora) so'zi turk tili yangi kashf qilgan ajoyib terminlardan biridir. Mazkur atamaning o'rni bo'sh edi, "tabir" lug'aviy birligi esa uning o'miga to'la mos kelmayotgan edi. Chunki "tabir" yagona so'zdan iborat bo'lishi ham mumkin. Deyim esa kamida ikki so'zdan tashkil topadi". Frazeologizm har bir tilning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda hosil qilinadi, shuning uchun uni boshqa tilga tarjima qilinish ancha mushkuldir. Turk tilida frazeologizmning ta'rifini quyidagicha ifodalash mumkin: Deyim ifoda kuchini orttirish uchun biroz o'z mantig'idan og'gan, ba'zi so'zlar o'zgarmagan holda ba'zilari o'zgarib turlanib, tuslanuvchi qoliplashgan birliklardir. Shundan kelib chiqib, ibora bildirayotgan ma'noda biroz mantiq tashqarisidagi fikr va tushunchalarni izlash, ayniqsa,

berilayotgan qoliplashgan birliklardagi so'zlardan birortasi tuslanganligi yoki turlanganligini inobatga olish lozim.

Dunyodagi barcha tillardagi frazeologizmlarning umumiy xususiyati – tarkibidagi so'zlarning biroz haqiqiy ma'hosidan o'zgarishi, hatto mantiq doirasidan tashqariga chiqishidir. Ibora qoliplari qadimga, ajodolarimizga borib taqaladi, shuning uchun ham uning ichidan mantiq chiqarishga urunilmaydi, balki qoliplar, tayyor holatda, boricha qo'llaniladi. Shuning uchun adiblar tildagi milliy o'zgachalikni berish uchun frazeologizmlardan foydalaniлади.

Tilshunoslikda frazeologizmlarni leksik-semantik tahlili qilish masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan. Biz frazeologizmlarni leksik-semantik tahlil uchun bir qancha maqolalar bilan tanishib chiqdik². Mazkur

² Ahmet Turan Sinan. Deyim kavramı üzerine notlar-1. Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi Fırat University Journal of Social Science Cilt: 18, Sayı: 2 Sayfa: 91-98, Elazığ – 2008. Bahadır Güneş. Azerbaycan türkçesinde "baş" sözüyle kurulan deyimler hakkında. Bugu Dil ve Eğitim Dergisi, 1(2), 150-162. Filiz Mete. Kültürel ortaklığın göstergisi deyimlerin öğretimi. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi

¹ Vecihi Hatiboğlu. Türkçenin sözdizimi. Ankara üniversitesi basimevi. Ankara. 1972, 195-bet.

leksik-semantik tahlilga bag'ishlangan maqolalarda Hind-Yevropa va Oltoy tillariga xos materiallar tahlil qilingan. Har qanday tilda so'zlashuchi aholining dunyoqarashi, dini va urf-odatlarida o'xshash jihatlar bor va bu holat iboralarida ham aks etadi.

Biz geneologik jihatdan Oltoy tillar olasiga kiradigan turk tilining Usmonlilar davrida ishlatilgan frazeologizmlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilishni istadik. Buning uchun yozuvchi Rashod Nuri Guntekining "Choliquishi", "Bir xotin dushmani" romanlarini manba sifatida tanladik. Rashod Nuri Guntekin o'zining romanlarida qahramonlar nutqidagi milliylikni ta'minlash maqsadida juda ko'p deyimlardan foydalangan. Yozuvchi mazkur til birliklarini shu darajada o'z o'rniда topib ishlatganki, biror iborani boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi. Bu holatni adibdag'i yozuvchilikni ko'rsatuvchi mahorati desak, adashmaymiz. So'z ustasining romanlaridagi frazeologizmlarni ma'lum bir komponentlar asosida leksik-semantik tahlil qilishga urinib ko'rdik. Adibning ikki asarida qo'llagan deyimlar ma'lum bir tizim asosida tasnif qilindi. Yozuvchi Rashod Nuri Guntekin romanlarida "Allah" komponentli deyimlar ko'p uchradi:

1. "Allah" komponentli deyimlar. Ma'lumki, "Alloh" "Rabbi" atamalari arab tiliga xosdir. Turkiy tilda ushbu terminning "Tangri", "Yaratgan", forsiy tilda esa "Parvardigor", "Xudo" sinonimlar mavjud. Turk iboralarida "Alloh" so'zi ko'p qo'llangan. "Allah" komponentli deyimlar tarkibida ot turkumi, sifat turkumi va fe'l turkumiga oid so'zlar qoliplashgan bo'lib, buyruq mayli qo'shimchasi, o'tgan zamon qo'shimchasi, ko'plik qo'shimchasi uchraydi va turli mazmunlarni ifodalaydi:

1) falokat yuz bergenligini yoki yuz berishini istamaslik. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah esirgesin (Худо кўрсатмасин), Allah yazdinya bozsun (Худо сақласин) frazeologizmlari falokat yuz bergenligini yoki yuz berishini istamaslik mazmuni ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: a) – Mümkün ama Kâmrân Bey için zararlı olur sanırm, dedim. Çünkü Allah esirgesin evde kavga çıkarsa kuzenimin hali ne olur? ("Çalikuşu". 30-bet). – Бўлади, лекин Комронбей учун

Türkoloji Dergisi 21, 2 (2014) 113-128. Асалиева С.И. Лексико-семантический анализ фразеологизмов с компонент “eye/глаз” в английском и русском языках. Журнал «Филологические науки». Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 1(55): в 2-х ч. Ч. 1. С. 90-94. Милютина Ю.В. Лексико-семантический анализ фразеологических единиц компонентом бить в брянских говорах (белорусским и украинским языками). Кучешева И.Л. Лексико-семантический анализ имен собственных в составе английских и русских фразеологических единиц: лингвокультурологических подход. Вестник ЧитГУ № 3 (48) 2008.Стр. 30-33.

зараарли бўлар деб ўйлайман, – дедим, – чунки худо кўрсатмасин, уйда жанжал чиққудай бўлса холаваччамнинг холи нима бўлар экан. b) – Allah esirgesin, dedi, ben büyümeyi kiritkan bir kiz olmak için istemiyorum ("Bir Kadin Düşmanı". 99-bet). – Оллоҳ сақласин, – деди, – мен унақа танноз қиз бўлиш учун улгайгим келаётгани йўқ.

2) qasam(ont) ichish. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan kaza vallahi (худо ҳаққи), allah aşkına vazgeç (худо ҳаққи), Allah aşkına (худо ҳаққи) frazeologizmlari qasam (ont) ichish mazmuni ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: a) – Beni affediniz beyefendi, dedim. Kaza vallahi... Daha doğrusu dikkatsizlik... ("Çalikuşu". 33-bet). – Кечиринг, бейфандим, – дедим, – худо ҳаққи, бехосдан бўлди... Яна ҳам тўғриси, билмай қолдим... b) – Peki, peki, nasıl isterseniz öyle olsun. Fakat, Allah aşkiniza yakamı birakiniz, dedim ve yere karanarak öpmeye çalıştığı dizlerimi zorla kurtardım ve Maarif Müdürü'nün odasına döndüm ("Çalikuşu". 154-bet). – Хўп, хўп, хоҳлаганингиз бўлсин. Лекин худо ҳаққи, мени қўйиб юборинг, – дедим-у, ерга ётиб олиб ўпмоқчи бўлган тиззalаримни зўрға қутқариб маориф мудирининг кабинетига қайтиб кириб кетдим.

3) yaxshi niyat. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah gönderdi (Оллоҳ насиб қилди), Allah sizden razı olsun (Оллоҳ сиздан рози бўлсин) frazeologizmi yaxshi niyat mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: a) Gelin yavrularım, gelin kuzularım... Sizi bana Allah gönderdi. Biraz sonra görüşürüz... ("Çalikuşu". 39-bet). "Келинг, жужуқларим! Келинг, қўзиларим!.. Сизларни менга оллоҳ насиб қилди. b) Hay Allah sizden razı olsun. Lütfen şu mendili veriniz... ("Bir Kadin Düşmanı". 78-bet). Оллоҳ сиздан рози бўлсин. Марҳamat қилиб, рўмолчангизни берасизми?

4) g'azablanish. Qarg'ish mazmun anglatuvchi iboralardan Allah cezasını versin (Худо ўз жазосини берсин), Allah belalarını veresiceler (Худо жазоларини берсайди), Allah belasını versin (Худо balosini bercin) frazeologizmlari g'azablanish mazmunini ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: a) – Hay Allah belalarını veresiceler, tuu! dedi ("Çalikuşu". 353-bet). – Эҳ, худо жазоларини берсайди! Туф!.. – деди. b) Müjgân beni kolumdan tutarak, sürüklər gibi koştururken: "Allah cezani versin. Niçin böyle yaptı?" diyordu ("Çalikuşu". 61-bet). Мужгон мени қўлимдан ушлаб судрамоқчи бўлгандай олдинга тортар: "Худо жазоингни берсин, нега бундай қилдинг?" деб койир эди.

5) nafrat-ta'kid. Qarg'ish mazmun anglatuvchi iboralardan Allah müstahakınızı versin (Ҳаммангизни жин урсин), Allah belasını versin (Жин урсин) frazeologizmlari nafrat-ta'kid mazmunini ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: a) Nihayet "Allah

мүстахакынizi versin" демек ister gibi bir hareket yaparak geri çekildi ("Bir Kadin Düşmanı". 35-bet). Нихоят "Ҳаммангизни жин урсын!" дегандай қўл силтаб, ўзини орқага ташлади. b) – Allah belasını versin!.. О öyle bir zevzektir ki her hafta biz buradan geçerken boğulur, sonra dirilir... ("Bir Kadin Düşmanı". 35-bet) – Жин урсын!.. Бу одам шунаقا муттаҳамки, ҳар ҳафта шу ердн ўтганимизда ғарқ болади, сўнг тирилади.

6) istak. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah yolunu açık etsin (Худо йўлингни очиқ қилсин) frazeologizmi istak mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: Benim, kuzenime "Haydi, Allah yolunu açık etsin, evdekilere selam" diyerek aptal aptal kapıdan çıktıgımı göründe her şeyi anlayacak,... ("Çalikuşu" 54-bet). Бўламга: "Бор энди, худо йўлингни очиқ қилсин, уйдагиларга салом айт", – деб апил-тапил эшиқдан чиқиб кетсан, сирни тушуниб қолади, ...

7) ajablanish. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah'im billür (Раббимга аён) frazeologizmi ajablanish mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: – Hey Allah'im billür musun nesin? Yüzünün bir yanından öbür yanı görünüyor ("Bir Kadin Düşmanı". 23-bet). Ё Раббимга аён, нафислигига қара, сув ичса томогидан кўринади-я.

8) yaxshi niyat. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah muinimiz olsun (Ходойимнинг ўзи қўпласин), Inshallah (Худо хоҳласа) frazeologizmlari yaxshi niyat mazmunini ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: a) Hemen Allah muinimiz olsun, kadın düşmanıyla muharebe başladi Nermin ("Bir Kadin Düşmanı". 97-bet). Бизни Ходойимнинг ўзи қўпласин, хотин душмани билан жангни дарҳол бошлаб юбордик. b) – Elini uzat da bir tecrübe edelim, dedi. Eski bir yüzüğünü ölçü verdim, inshallah dar falan değildir ("Çalikuşu". 82-bet). – Кўлингни узат, бир тақиб кўрайлик, – деди. – Эски узугингга ўлчатиб қилдирдим. Худо хоҳласа, лойиқ келар.

9) yalinish. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah aşkına yapma (Худо хайрингни берсин) frazeologizmi yalinish mazmunini ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: a) – Bırak beni, dedi... Üstümü başımı yırtacaksın. Yoldan görecekler, rezil olacağız, Allah aşkına yapma! diye yalvarıyordu ("Çalikuşu". 64-bet). – Қўйвор, қўйвор дейман сенга! Уст-бошимни йиртасан! Одамlar кўрса шарманда бўламиз, худо хайрингни берсин, бундай қилма, – деб ёлворарди. b) – Hanımfendi kızım, geçenlerde size karşı bir terbiyesizlik ettim. Allah aşkına kusuruma bakmayınız ("Çalikuşu". 153-bet). – Хоним афанди қизим, қайси куни сизга нисбатан ёмон одобсизлик қилдим. Худо хайрингизни берсин, менинг гуноҳимни кечиринг.

10) noilojlik. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allahaismarladik (Худога топширдик) frazeologizmi noilojlik mazmunini ifodalash uchun qo'llangan.

Masalan: – Anlaşıldı. Sizinle kavga etmeden konuşulmayacak. Allahaismarladık, dedim ve hiddetle denize doğru yüremeye başladım ("Çalikuşu". 73-bet). – Тушундим. Сиз билан жанжалсиз гаплашиб бўлмас экан. Худога топширдик, – дедим-у, жаҳл билан денгиз томонга тез-тез юриб кетдим.

11) mammunlik-ta'kid. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah'tan olacak (Худо ўзи ёрлақади) frazeologizmi mammunlik-ta'kid mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: Allah'tan olacak, sababtan beri çalışan terzi matmazel, Dilber Kalfa ile beraber bahçeye hava almaya çıkmış ("Çalikuşu". 98-bet). Худо ўзи ёрлақади-ю, эрталабдан бери иш билан банд бўлган тикувчи хоним шогирди Дилбар халфа билан ҳовлига дам олгани чиқиб келаётган экан.

12) shukronalik. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Fesuphanallah (Субҳонолло) frazeologizmi shukronalik mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: – Fesuphanallah, fesuphanallah! diye seslendi. Аçsana yüzünü hanım? ("Çalikuşu". 116-bet) – Субҳонолло! Субҳонолло! – деб юборди. – Юзингни оч-а, хоним!

13) yaxshi niyat. Duo qilish mazmuni mazmunini ifodalovchi iboralardan Allah toprağı kadar ömür versin sana (Ходойим сенга еру кўкдай узоқ умр берсин) frazeologizmi yaxshi niyat mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: – Çok, kızım, seni göründe aklım karıştı, onu görüyorum sandım. Allah toprağı kadar ömür versin sana ("Çalikuşu". 117-bet). – Жуда ҳам, қизим. Сени кўриб, ақлим шошиб қолди, уми деб ўйлабман. Ходойим сенга еру кўкдай узоқ умр берсин.

14) qutlash-ta'kid. Duo qilish mazmuni mazmunini ifodalovchi iboralardan Allah mübarek etsin (Худо муборак қилсин) frazeologizmi qutlash-ta'kid mazmunini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan: – Sen sakladın da ben öğrenmedim mi sanki? Allah mübarek etsin, dedi ("Çalikuşu". 155-bet). – Сен яширдинг-у, мен билмай қолдим, шундай-да? Худо муборак қилсин, – деди.

15) eslash-ta'kid. Duo qilish mazmuni mazmunini ifodalovchi iboralardan Himmeti hazır, nazır olsun (Худо раҳмат қилсин) frazeologizmi eslash-ta'kid mazmunini ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: – Himmeti hazır, nazır olsun, bir mübarek zat, na, şuradaki servinin altında yatar (166-bet). – Худо раҳмат қилсин, табаррук киши. Xу, анови сарви дарахtinинг тагида ётади.

16) noaniqlik. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Allah bilir (Худо билади) frazeologizmi noaniqlik mazmunini ifodalash uchun qo'llangan. Masalan: – Hele nazlanma söyle. Böyle fikir fikir gülüşün boş değil. Sen Allah bilir iyi bir şey isittin? diyordu ("Çalikuşu". 150-151-betlar) – Кўп ноз қилаверма, айт. Бундай пиқирлаб кулишингнинг боиси йўқ эмас. Худо билади, бирон хушхабар эшитган кўринасан, –

деди.

17) rozilik-mamnunlik. Diniy e'tiqod bilan bog'liq iboralardan Maşallah (Худога шукр) frazeologizmi rozilik-mamnunlik mazmunini ifodalash uchun ishlatalgan. Masalan: Hacı Kalfa: "Yollar maşallah emindir, amma ne olur ne olmaz, peçeni kappa ("Çalıkuşu". 162-bet). Ҳожи ҳалфа: "Йўллар, худога шукр, тинч, шундай бўлса ҳамки, юзингни беркитиб юр.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dunyoning barcha tillardagi frazeologizmlar umumiyl xususiyatiga ko'ra birlashadi, ammo har bir milliy tilda o'zgacha xususiyatga ega bo'lishi bilan farqlanadi. Turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekining "Choliqushi", "Bir xotin dushmani" romanlarida "Allah" komponentli deyimlar ko'r uchradi va ular turli xil mazmurlarni ifodalagan.

F OYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.Berdiyorov, R.Rasulov, B.Yo'idoshev. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. Sam., Birinchi qism, 1976, 4-7-betlar.
2. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992, 74-bet.
3. U.Lafasov. "Dialogik nutqda sub'ektiv modallikkning ifodalanishi" nomzodlik dissertatsiyasi. T., 1996, 81-139-betlar.
4. A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis). 2-qism. T., "O'qituvchi" 1987, 26-bet.
5. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko'rgi. T., Fan, 1970, 56-bet.
6. Vecihi Hatiboğ lu. Türkçenin sözdizimi. Ankara üniversitesi basimevi. Ankara. 1972, 195-bet.
7. Рашод Нури Гунтекин. Чоликуши. Таржимон Мирзакалон Исмоилий. Т., "Шарқ" нашириёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014.
8. Рашод Нури Гунтекин. Хотин душмани. Тўкилган япроқлар. Бобохон Муҳаммад Шариф. Т., "Янги аср авлоди" нашиёти. 2013.
9. Reşat Nuri Güntekin. "Çalıkuşu" romani. İnkılar Kitabevi Yayın Sanayi ve Ticaret AŞ. Yenibosna – İstanbul. 2014.
10. Reşat Nuri Güntekin. "Bir Kadin Düşmanı" romani. İnkılar Kitabevi Yayın Sanayi ve Ticaret AŞ. Yenibosna – İstanbul. 2016.
11. "Türkçe Sözlük" (internet saytidagi) dan olindi.
12. Türk dil Kurumu. Kurallaina uygun. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. Karatay yayınları. 2019.
13. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. "O'zME" davlat ilmiy nashr., 2002, 164 bet.
14. Ahmet Turan Sinan. Deyim kavramı üzerine notlar. I. Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi Fırat

University Journal of Social Science Cilt: 18, Sayı: 2 Sayfa: 91-98, Elazığ – 2008.

15. Bahadır Güneş. Azerbaycan türkçesinde "baş" sözüyle kurulan deyimler hakkında. Bugu Dil ve Eğitim Dergisi, 1(2), 150-162.
16. Filiz Mete. Kültürel ortaklığın göstergisi deyimlerin öğretimi. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Türkoloji Dergisi 21, 2 (2014) 113-128.
17. Ömer Asım Aksøy. Atasöz tasözleri ve deyimler sözlüğü. İstanbul, "Inkilap", 1. 2-kitab. 1993.
18. Асалиева С.И. Лексико-семантический анализ фразеологизмов с компонент "eye/глаз" в английском и русском языках. Журнал «Филологические науки». Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 1(55): в 2-х ч. Ч. 1. С. 90-94.
19. Милютина Ю.В. Лексико-семантический анализ фразеологических единиц компонентом быть в брянских говорах (белорусским и украинским языками). 20. Кучешева И.Л. Лексико-семантический анализ имен собственных в составе английских и русских фразеологических единиц: лингвокультурологических подход. Вестник ЧитГУ № 3 (48) 2008.Стр. 30-33.